



## ABDULLA QAHHORNING “ANOR” VA AGATA KRISTINING “THE REGATTA MYSTERY” HIKOYALARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

**To‘xtayev Komil Dilshodovich**

*Buxoro xalqaro universiteti, lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** *Bu tezisdagi o‘zbek adabiyotidan Abdulla Qahhorning “Anor” va ingliz adabiyotidan Agata Kristining “The Regatta Mystery” hikoyalaridagi mavzular tahlil qilingan. Unda ikkala hikoya syujeti va ularda muhokama qilingan mavzular qiyoslangan. Shuningdek, ishda ikki hikoyadagi frazeologik birliklar ajratib olingan va ularning ma‘nosi izohlangan. Tezisning xulosa qismida ikki hikoyada ishlatilgan frazeologik birliklarning bu hikoyalar mavzusiga qo‘shgan hissasi haqida fikr bildirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *frazeologiya, frazeolik birlik, frazeologik qo‘shilma, adabiy yo‘nalish, realizm, modernizm, detektiv janri, syujet, mavzu, hayot tarzi, kambag‘allik, to‘qlik.*

**Аннотация.** *В данном тезисе анализируются темы в рассказе “Гранат” Абдуллы Каххара из узбекской литературы и в рассказе “The Regatta Mystery” Агаты Кристи из английской литературы. В нём проводится сопоставление сюжетов и тем, поднимаемых в обоих произведениях. В работе также выделены и истолкованы фразеологические единицы, встречающиеся в этих двух рассказах. В заключении тезиса рассматривается вклад фразеологизмов, использованных в двух рассказах, в раскрытие их темы.*

**Ключевые слова:** *фразеология, фразеологическая единица, фразеологическое сочетание, литературное направление, реализм, модернизм, детективный жанр, сюжет, тема, образ жизни, бедность, богатство.*

**Annotation.** *This thesis analyses the themes in Abdulla Qahhor’s “The Pomegranate” from Uzbek literature and Agatha Christie’s “The Regatta Mystery” from English literature. It compares the plots and themes discussed in the two stories. The work also extracts and defines the phraseological units found in the two stories. The conclusion expresses an opinion on the contribution of the phraseological units to the theme of the two stories.*

**Key words:** *phraseology, phraseological unit, phraseological combination, literary movement, realism, modernism, detective genre, plot, theme, lifestyle, poverty, wealth.*



Tilning leksik-frazeologik qatlami tarkibiga leksemalar va frazemalar kiradi. Frazemalarni frazeologiya bo'limi o'rganadi. Frazemalar til egalari nutqida va badiiy adabiyotda keng qo'llanadi. Bu tezisda o'zbek adabiyoti va ingliz adabiyotidan tanlab olingan bittadan hikoyadagi mavzular va frazeologik birliklar tahlil qilingan. Tanlangan hikoyalarning ikkalasi ham 1936-yilda yozilgan.

Birinchi hikoya taniqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasidir. Abdulla Qahhor realizm yo'nalishida ijod qilgan. U o'zi yashagan davrdagi o'zbek xalqi hayotini boricha va mohirona tasvirlab bergan.

"Anor" hikoyasining bosh qahramonlari ikki yosh, Turobjon va uning xotini, bo'lib, hikoya syujeti ikkiqat bo'lgan bu ayolning anorga boshqorong'i bo'lganligi, erining esa nochor bo'lganligi uchun narxi qimmat bo'lgan anordan xotiniga sotib olib berolmay iztirob chekkani voqealari atrofida aylanadi. "Anor" hikoyasi 20-asr sobiq Ittifoq davrida odamlarda mol-mulk egaligida teng emaslik, ya'ni ayrim odamlarning boy ekanligi, o'ziga ko'ngli tusagan narsani sotib olishga qurbi yetishi, qolganlarning esa faqat eng kerakli oziq-ovqatlar va narsalarni sotib olishga puli yetgani, er-xotinning bir-birini tushunmasliklari, xotini anorga boshqorong'i bo'lgani uchun eridan anor olib kelishini so'rayverishi, anor yeyolmagani uchun hayotidan norozi bo'lishi, er esa xotini tushunmay, uning injiqligini ko'tarmay uni xafa qilgani, so'kkani va hatto uni urgani, Turobjon oxiri bu janjalga chiday olmay bir boyning bog'idan bir amallab anor o'g'irlab kelgani voqealaridan iborat. Hikoyada ijtimoiy tengsizlik, kambag'allik, er-xotinning bir-birini tushunmasligi, er va xotinning oilada teng emasligi, xotin dardini ichiga yutishga majburligi, agar eriga gap qaytarsa, ta'na qilsa, kaltak ostida qolishi, bu nochor oilaga hech bir boy yordam bermagani misolida odamlarning bir-biridan uzoqlashganlari va bee'tibor bo'lib qolganlari muhokama qilingan.

"Anor" hikoyasi realizm yo'nalishidagi asar bo'lgani uchun unda frazeologik birliklar va stilistik vositalar soni ko'p emas. Hikoyada asosan frazeologik qo'shilmalar turidagi frazeologik birliklar mavjud. Frazeologik qo'shilma atamasi rus tilshunos olimi V.V. Vinogradov tomonidan tilshunoslikka kiritilgan bo'lib, bu turdagi frazeologik birlikda bitta so'z to'g'ri ma'noda, ikkinchisi ko'chma ma'noda bo'ladi.

"Anor" hikoyasida quyidagi frazeologik birliklar ishlatilgan:

- shashti qaytmoq - ish-barakatni bajarishga intilishi, motivatsiyasi kamaymoq, so'nmoq
- bo'shashib ketmoq - madori qurimoq, jismonan zaiflashmoq
- bemaza chiqmoq - ta'mi yomonligi ma'lum bo'lmoq
- ko'zi tushmoq - birdan ko'rib qolmoq
- yuragi achimoq - achinmoq, "esiz" demoq
- o'pkasi to'lmoq - qattiq xafa bo'lib yig'lash darajasiga yetmoq
- rang kirgizmoq - rangini o'zgartirmoq, rangini ko'zga yoqadigan qilmoq
- avzoyi buzilmoq - kayfiyati yomonlashmoq, ruhi tushmoq
- ko'ngli tortmoq - ish-harakatni qilishni xohlamoq



- borgan sayin - vaqt o'tishi bilan
- tili qotib, og'izda aylanmay qolmoq - nima deyishini bilmay qolmoq
- jigari ezilmoq - qiynalmoq
- achchig'idan tushmoq - jahli kamaymoq
- yuragini qon qilmoq - zeriktirmoq
- yo'qqa chiqmoq - yo'q bo'lmoq, yo'qolmoq
- ko'z oldiga keltirmoq - tasavvur qilmoq, xayolida ko'rmoq
- tepa sochi tikka bo'lmoq - qattiq g'azablanmoq
- ko'zi tinmoq - holsizlanmoq

Shuningdek, hikoyada “Asal otliqqa yo'q, hali biz piyoda-ku!” matali ham ishlatilgan. Uni Turobjon xotiniga olib kelgan asalini sotib olmagan, ishdagi xo'jayinidan olganini tushuntirish uchun aytgan. U “Bizdan kattalar, boylar asal ololmaydi-ku, biz kambag'allar qanday asal sotib olaylik” degan ma'noda aytilgan.

Ingliz tilida tanlab olingan hikoya Agata Kristining “The Regatta Mystery” hikoyasi. Agata Kristi modernizm yo'nalishida, detektiv janrida ijod qilgan. U detektiv janri adiblari orasida eng yaxshisi deb tan olingan, unga “the Queen of Crime” (“jinoyat janri qirolchasi) epiteti berilgan.

“Anor” hikoyasi va “The Regatta Mystery” hikoyasi bir-biridan tubdan farq qiladi. “Anor” hikoyasida oilaviy munosabatlar va jamiyatning Sovet Ittifoqi davri Ikkinchi jahon urushi oldi hayoti tasvirlangan bo'lsa, “The Regatta Mystery” hikoyasi janob Points va uning bir nechta do'stlarining Dartmut shaharchasida dam olib yurganlari va tushlik paytida kutilmaganda janob Points o'zi bilan olib yurgan juda katta qiymatga ega olmosning o'g'irlanishi jumbog'i voqealaridan iborat. “Anor” hikoyasidagi qahramonlar kambag'al yoshlar bo'lib, unda o'sha davrdagi o'zbek xalqining kambag'alligi tasvirlangan; “The Regatta Mystery”da esa qahramonlar ishbilarmon, boy odamlar va aynan mana shu boylik janob Poyntsda to'qlikka sho'xlik va ehtiyotsizlikka olib kelgani, buning natijasida uning sevimli olmosini o'z hamrohlari tomonidan ustalik bilan o'g'irlanishi hikoya qilingan.

“The Regatta Mystery” hikoyasida quyidagi frazeologik birliklar ishlatilgan:

- wear your heart on your sleeve - so'zma-so'z: yuragini yengida kiymoq; ko'ngli ochiq bo'lmoq, o'zining aslini yashirmaslik
- suit the action to the word - aytgan gapiga mos ish qilmoq
- do someone well - ko'nglini olmoq
- the crême de la crême (fransuzcha) - eng yaxshisi, eng sarasi
- be on the make - ko'z tikmoq
- see to something - ishonch hosil qilmoq
- have all your wits about you - o'tkir zehni bo'lmoq
- ram your writing down someone's throat - boshqalarni o'z fikrlarini eshitishga majbur qilmoq
- take care - ehtiyot bo'lmoq



- be quite so lifelike as - reallashmoq, tasavvur qilingan vaziyatni real hayot darajasiga olib chiqmoq
- get away with something - jazosiz yoki qo'lga tushmasdan qochib qutulmoq
- take the lion's share - eng katta ulushni olmoq
- get worked up - hayajonlanib/berilib ketmoq
- leave nothing to be desired - boshqa hech narsaga xojat qoldirmaslik
- take off one's hat - bosh kiyimini yechib ehtirom/hurmat ko'rsatmoq
- come across - duch kelmoq
- under your breath - past ovozda
- the devil of it - eng og'ir/azob beradigan jihat
- cut a bit of a splash - odatdagidan ko'proq pul sarflamoq
- rule out - ehtimollikni “bunisi bo'lishi mumkin emas” deb chiqarib tashlamoq
- by the way - aytgancha, darvoqe

#### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “Anor” va “The Regatta Mystery” hikoyalarining ikkisida ham o'ndan ziyod frazeologik birliklar mavjud. “The Regatta Mystery” hikoyasi hajmi uzunroq bo'lgani uchun unda frazeologik birliklar soni shunga mos ko'proq. Ikkala hikoya ham real hayotda hayotda bo'ladigan voqealar haqida yozilgani uchun ularda obrazlilik, stilistik vositalar ishlatilishi mumtoz adabiyot yoki folklordagin kamroq miqdorda. Bu hikoyalar 1936-yilda o'zbek va ingliz xalqi qanday hayot kechirganini o'quvchilarga ko'rsatib beradi. Ikkala hikoyada ishlatilgan frazeologik birliklar asarda muhokama qilingan mavzularga mos va ular hikoyalardagi personajlar va voqealarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qahhor A., Tanlangan hikoyalar, Toshkent, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013, 3-7-betlar.
2. Mirzayev T. va boshqalar, O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, Toshkent, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006
3. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K., O'zbek tili frazeologik lug'ati, Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
4. Christie A., The Regatta Mystery and Other Stories, New York, William Morrow, Epub edition, 2012.
5. <https://tilmoch.ai/uz/translator>
6. <https://dictionary.cambridge.org>